

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-OKTABR, 2024

CHO'L PON LIRIKASIDA XALQONA OLQISHLARNING, QARG'ISHLARNING POETIK YANGILANISHI

Sobirova Zarnigor G'anijon qizi

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
Folklorshunoslik va dialektologiya mutaxassisligi

Magistranti

zarnigorsobirova0196@gmail.com

Annotatsiya: Dunyo xalqlari adabiyotida folklorizmlarning badiiy asar xalqchilligini va milliyligini oshirishdagi o'rni hamda roliga qiziqish ortib bormoqda. Har bir ijodkor asaridagi folklorizmlarning ijtimoiy-psixologik asoslarini, omillarini, poetik vazifalarini yoritishga bag'ishlangan tadqiqotlar salmog'i oshmoqda. Dunyo bo'yicha qadimdan olim-u shoirlar folklor namunalarini to'plab o'rganishga alohida ahamiyat qaratib kelishgan. Hatto ko'pgina ijodkorlar asarlarining xalq ko'ngliga tez yetib borishini ko'zlab, folklor asarlariga xos sodda shakl va ifoda uslubidan, an'anaviy epik obraz va motivlardan, o'ynoqi va serjilo ohangdan foydalanib, betakror mahorat qirralarini namoyon etishgan. Jumladan, XX asr boshlarida yashagan Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lon, G'ozi Olim Yunusov va Elbek (Mashriq Yusupov) ham o'zbek folklori tabiatni, janriy tizimi va tarkibi, badiiyatiga oid ilmiy qarashlar bildirib, xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plab nashr etish va omma orasida targ'ib qilish borasida samarali xizmatlar qilganlar.

Kalit so'z: Folklorizm, personaj, olqish, syujet, publitistika, nazm, qarg'ish, adabiyot,

Folklorizm - xalq ijodi haqidagi fan. Folklorizm turli davrlarda va turli mamlakatlarda etnografiya, adabiyotshunoslik, musiqashunoslik, antropologiya va sotsiologiyaning bir qismi sifatida qaralib kelgan. Keyinchalik xalq san'atini (xalq og'zaki ijodi, musiqa folklori, raqsi, teatri, sirkni kabi) o'rganuvchi mustaqil va maxsus fan sifatida rivojlanadi. Filologiya va san'atshunoslik fanlari bilan uzviy bog'liqidir. Ijodkorning folkloriga xos tasvir uslubiga ergashishi, folklor materialidan o'z asarida foydalanishi, folkloriga mansub syujet yoki motivni asariga olib kirishi va boshqa murakkab folklorizm hisoblanadi. Folklorizm istiloh sifatida ilk bor XIX asrda fransuz folklorshunosi Sebiyo tomonidan qo'llanilib, "folklor bilan qiziqish va shug'ullanish" degan ma'noda ifodalangan. Rus adabiyotshunoslida XX asrning 30 -yillariga kelib, M.K.Azadovskiy badiiy adabiyotda va publitistikada folklordan foydalanishi folklorizm deb nomlaydi.¹ Keyinchalik bu atama 60-yillarga kelib xalqaro tus oldi. Bu istiloh o'zbek adabiyotida o'tgan asrning 80-yillarida kirib keladi. Bahodir Sarimsoqov o'z tadqiqotida uning mohiyatini yoritdi va shundan kelib chiqib tasnifladi. Tadqiqotdan anglashiladiki, xalq og'zaki ijodi namunalarining yozma adabiyotga ko'chishi –folklorizmni tashkil qiladi. Folklor va yozma adabiyot o'rtasidagi munosabatda ikki jihatni farqlaydi: a) folklor va adabiyot o'rtasidagi genetik(bevosita) aloqadorlik; b) har ikkisining bilvosita–folklorizmlar orqali aloqasi. Folklorizmlar nasr, nazm va dramaturgiyada ham qo'llanilgan. Lekin har bir adabiy turda u o'ziga xos ma'no xususiyatlarini ko'rsatadi. Folklorizmning yana bir muhim tomoni shundaki, u folklor va yozma adabiyot munosabatining davomiyligini ta'minlaydi. Shuning uchun taniqli folklorshunos B.Sarimsoqov folklorizmlar tabiatini tadqiq qilar ekan: "folklor va yozma adabiyot munosabati o'z ichiga ijodkor ijodidagi oddiy folklorizmlarni aniqlashdan tortib, ijodiy metod munosabati, xalqchillik, milliylik va baynalmilallik, ijodkorning folklordan

¹ Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори.

– Тошкент: Фан, 2001.

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-OKTABR, 2024

ijodiy foydalanish yo'llari va usullari, u yoki bu san'atkor mahoratining yo'nalishi va unda folklor an'analarining ta'siri muammolarigacha qamrab oladi", – degan haqli fikrni aytib o'tgan.²

XX asr she'riyatida folklorizmlar tabiatini tekshirar ekanmiz, o'z o'rnila oddiy folklorizmlar bilan bir qatorda murakkab folklorizmlarni ham oz miqdorda uchratamiz. Negaki, murakkab folklorizmlarni she'nda bir o'qishda topish qiyin. U she'r mazmuniga singdirilishi, yoki ijodkor tomonidan folklor materiali qayta ishlangan bo'lishi, folklor elementlari epizodik vazifa bajarib qolishi mumkin. Buni faqat tadqiqotchi sinchikovlik bilan topa oladi. Adabiyotshunos olim B.Sarimsoqov murakkab folklorizmlarni aynan shu xususiyatlarini inobatga olib, uni uch turga ajratgan: a) analitik folklorizmlar; b) sintezlashgan foklorizmlar; d) stilizatsiya xarakterdagи folklorizmlar. Analitik folklorizm oddiy folklorizm kabi asl holida yoki biroz o'zgartirilgan holda syujetga singdirilmagan folklor materiali bo'lib, asar tarkibida alohida ajralib turadi. Oddiy folklorizmlarning manbasi maqol, matallar bo'lsa, analitik folklorizmda rivoyat, afsona, qarg'ish, olqish, qo'shiq to'liq holida hamda doston va qo'shiqlardan parchalarning badiiy asar tarkibida keltirilishidan hosil bo'ladi.

Analitik folklorizm o'zbek she'riyatidan ko'ra nasrda ko'p uchraydi. Abdulhamid Cho'lpon she'rlarida uchraydigan folklorizmlarning XX asr boshlari o'zbek adabiyoti badiiy takomilida, milliy she'riyatning yangilanishi jarayonida o'z o'rni bor. Cho'lpon ijodida uchraydigan folklorizmlar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi va ularni o'rganish so'z ustasining poetik mahorati darajasini yanada yorqinroq tasavvur qilish barobarida u yashagan XX asr boshlaridagi adabiy jarayon taraqqiyotida folkloarning ta'sirini bilib olishga yordam berishi jihatidan yanada muhimdir. Cho'lpon o'z she'rlarida folklorizmning analitik tipining turli xil ya'ni oddiy va murakkab turlaridan katta mahorat bilan foydalangan. Shoир she'rlarida xalq olqish va qarg'ishlari ishtirok etgan betakror analitik folklorizmlar yaratilganligiga guvoh bo'lish mumkin.

O'zbek she'riyatida olqish va qarg'ish analitik folklorizm sifatida juda keng tarqalgan. Ular faqat doston, she'riy ertak tarkibida emas, hatto she'rlar tarkibida ham keltirilganligi kuzatiladi. Xalq olqishlari she'riyatda qo'llanar ekan, shakliga ko'ra analitik folklorizmning ikki ko'rinishini yuzaga keltirgan. Shu asosda aynan qo'llangan va o'zlashtirilgan olqishlar anchagina.

Olqishlar: a) Vatanga; b) xalqqa; v) ota-ona, farzandga, do'st-yorga, demak, aniq bir kishiga nisbatan aytilgan hamda g) ramziy olqishlarga bo'linadi. 70-80-yillar o'zbek she'riyatida Vatan va xalq alqangan olqishlar serob. Bunday olqishlar aksariyat hollarda «Omon bo'l», «Bor bo'l», «Gurkira», «Xazon ko'rma, inshoollo» tarzida ifodalangan. Xalq olqishlari aynan birov uchun yaratilmaydi. «Bor bo'l», «Omon bo'l», «Sog' bo'l», «Umring uzun bo'lsin» kabi olqishlar turli vaziyatlarda turli yoshdag'i istalgan kishilarga ezgu niyat bilan aytildi. Yozma she'riyatda esa bu olqishlardan analitik folklorizm hosil qilinar ekan, u aniq bir kishiga, ma'lum adresatga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanadi.

Bu olqishlar vositasida yo'lovchiga xavf-xatarsiz, qiyinchiliksiz safar tilanadi. «Yo'ling oq bo'lsin» olqishining genezisi xalqning oq rang bilan bog'liq qadimiy va an'anaviy e'tiqodiy qarashlariga borib taqaladi. Bunda oq rangning yorug'lik, xotirjamlik ramzini ifodalab kelishini eslash kifoya. Ushbu olqish she'rlarda turli vaziyatlarda qo'llaniladi:

Ey, sen, go'zal singlim, oshiq ukajon,

² Жўракулов У. Худудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006.

Oq yo‘l saodatli sitoralarga.³

Ba’zan shoirlar badiiy ijod imkoniyatlaridan foydalanib, olqishni qarg‘ishga xos uslubiy qolipda bayon etishi yoki aksincha, qarg‘ishni olqish usulida aytib, she’rning badiiyati va ta’sirchanligini oshirishga intilganlarini kuzatish mumkin. Masalan:

Sovchilar eshigida zor bo‘lsin,
Nozimalar, Madinalar bor bo‘lsin.

«Zor bo‘l» iborasi aslida qarg‘ishga xos, ammo qizlar eshigida sovchilarning zor o‘tirishi – bu qarg‘ish emas, balki olqishdir.⁴

Bundan tashqari Cho‘lpon she’rlarida olqishlar xalqni da’vatga chaqirish, uyg‘otuvchi bir darak sifatida ham yangraydi.

Ol bayrog‘ingni, qalbing uyg‘onsin,
Qullik, asorat – barchasi yonsin,
Qur yangi davlat, yovlar o‘rtansun,
O‘sib Turkiston, qaddin ko‘tarsin,
Yayrab, yashnab, o‘z Vataning gul Bog‘laringda.

Shoirning olqish va qarg‘ishlar asosida yaratgan bunday analitik folklorizmlari she’r ohangdorligini oshirish barobarida uning badiiy ta’sirchanligini ham kuchaytirishga xizmat ko‘rsatgan.

Cho‘lpon she’rlarida olqishlar ko‘pincha xalq, Vatan va yurt timsollariga qaratilgan ekan. Shu o‘rinda uning quyidagi satrlari ko‘rishimiz mumkin:
Ketdilar birga yiroq safarga,
Xudo yo‘l bersin turkistoniylarg....

Belinda kamar, qo‘lida bayroq,
Ulug‘ Turkiston, yo‘ling bo‘lsin oq... Erk va ozodlik kuychisi sifatida Cho‘lpon o‘zining barcha she’rlarida analitik folklorizm orqali xalqni, millatni olqishlab chaqiriqlar bilan ma’rifat sari chorlaydi. Cho‘lpon she’rlarida mustamlaka zulmi ostida qolgan Vatan va millat ahvolini, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarga munosabatini badiiy talqin etdi. Shoir she’rlarida stilizasiya qilingan qarg‘ishlar bir kishiga, birgina obyektga emas, balki umumga qaratilgani jihatidan ijtimoiy ahamiyatga ega va xalqona qarg‘ishlardan shunga ko‘ra farq qiladi.⁵ Cho‘lpon bunday xalqona olqish va qarg‘ishlar, qochirim so‘zlar, ramziy obrazlar, epik timsol va motivlarga ko‘p murojaat qilgani kuzatiladi.⁶ Shoir she’rlaridagi olqishlar, asosan, Vatan va vatandoshlar timsoliga qaratilgan:

Ketdilar birga yiroq safarga,
Xudo yo‘l bersin turkistoniylarg....
Belinda kamar, qo‘lida bayroq,

Ulug‘ Turkiston, yo‘ling bo‘lsin oq... “Xudo yo‘l bersin turkistoniylarg”, “Ulug‘ Turkiston, yo‘ling bo‘lsin oq...” kabi olqishlar tag zamirida olam-olam ma’no bor. Milliy uyg‘onish davrining barcha ijodkorlari singari Cho‘lpon millat erki va ozodligini kuyladi. Mustamlakachilar tomonidan ming-ming yillik tarixi, dunyoga ilmu ma’rifati bilan dong taratgan ajdodlarining xoki poki toptalgan, oyoq

³

⁴ Исмоил Гаспринский ва Туркистон. – Тошкент: Шарқ, 2005.

⁵ Истиқлол ва Фитрат” мавzuидаги анъанавий республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Бухоро, 2017.

⁶ Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983.

osti qilingan, g'ururi yerga urilgan millatning ayanchli ahvoli, uning kelajagidan tashvishlanayotgan shoirning ruhiy holati folklorizmlar asosida yoritib berildi.

Olkishlarda fikr ko'pincha ortiqcha badiiy bo'yoqlarsiz, to'ppadan-to'g'ri bayon etiladi. Qarg'ishlarda esa insonga yomon niyat bildirilishi bois insoniylik nuqtai nazaridan og'ir vaziyatni biroz bo'lsa-da yumshatish ilinjida fikr to'ppadan-to'g'ri emas, metaforik usulda, yashirin ramziy tusda bayon etiladi. Qarg'ishlarga xos bunday metaforik bayon uslubi shoirlarga o'z fikrini, qalbi tubiga yashiringan og'riqli o'y-kechinmalarini badiiy ifoda etishida qulaylik tug'diradi. Shuning uchun qarg'ish qo'llangan she'rlarda metaforik ifodaviylik, shartli badiiy ko'chim, ramziylik alohida bo'rtib ko'rindi.

She'riyatimizda mifologik qarg'ish sanoqli qo'llangan bo'lib, yuqorida keltirilgan satrlardagi «Jin ursin» qarg'ishiunga misoldir.

Qarg'ishlar mustaqil janr bo'lib, qisqa va ixcham jumlada keng ma'noni ifoda etadi hamda ularning aksariyatida fikr ko'chma ma'noda, metaforik usulda bayon etiladi. Aytaylik, xalq «o'l» qarg'ishining o'nlab obrazli ifodalarini yaratgan. Masalan, «taxtaga olay» qarg'ishi motam marosimiga aloqador an'anaviy udumlardan biri - o'lgan kishini ko'mishdan oldin taxtaga olib yuvib poklash holatini anglatadi. Shuning uchun bu qarg'ish o'limni ifodalaydi.⁷ «Uying kuygur» qarg'ishining dastlabki ma'nosisi «uying yonsin, maskansiz, yashash joyisiz ko'chada qol» degani. Ammo bu qarg'ishning kelib chiqishiga ham qadimgi odamlar orasida amal qilgan udum: o'lgan kishining uyini yoqib yo'q qilib yuborish odati asos bo'lgan. Demak, «uying kuysin» qarg'ishida ana shu odatga ishora bor. Uni aytish esa kishiga o'lim tilanayotganligini anglatadi. O'zbek she'riyatidagi qarg'ishlarni qo'llanish maqsadiga ko'ra shunday guruhash mumkin: 1. O'z-o'zini qarg'ash. 2. O'zgalarni qarg'ash.

She'riyatimizda mifologik qarg'ish sanoqli qo'llangan bo'lib, yuqorida keltirilgan satrlardagi «Jin ursin» qarg'ishiunga misoldir.

Qarg'ishlar mustaqil janr bo'lib, qisqa va ixcham jumlada keng ma'noni ifoda etadi hamda ularning aksariyatida fikr ko'chma ma'noda, metaforik usulda bayon etiladi. Aytaylik, xalq «o'l» qarg'ishining o'nlab obrazli ifodalarini yaratgan.

Masalan, «taxtaga olay» qarg'ishi motam marosimiga aloqador an'anaviy udumlardan biri - o'lgan kishini ko'mishdan oldin taxtaga olib yuvib poklash holatini anglatadi. Shuning uchun bu qarg'ish o'limni ifodalaydi. Har bir narsaning kushandasi, unga qarshi turadigani bo'ladi. Xalq qarg'ishni ikki yo'l bilan qaytargan. Yomon yo'l bilan, ya'ni qarg'ishga qarg'ish bilan javob qaytargan. Bunday hollarda «qarg'ishing o'zingga ursin!», «Og'zingdan chiqqib yoqangga yopishsin!», «Tilingdan chiqqani yoqangga yopishsin» deyilgan. 70-80-yillar she'riyatida bu holat ko'zga u qadar tashlanmaydi. Ikkinchisi shuki, yaxshi yo'l bilan qarg'ishni qaytarishga urinishgan. Fe'li ezbilik bilan yo'g'rilgan xalq o'ziga yomonlik tilab turgan nokasliga ham, balki zulm ko'rgani uchun qarg'anib turganiga yoxud oddiy bir ishga jahlini tiyolmay, so'z sehrini tushunmay qarg'ish ishlatganlarga ham yomonlikni ravo ko'rmay, qarg'ishdan o'zini saqlash bilan cheklangan.⁸ Bunday paytda «Nafasingni yel yesin», «Og'zingga shamol», «Ovozingni shamol olsin» kabi qaytariqlarni qo'llashgan. «Qarg'ish urdi», «Qarg'ish tegdi», «Qarg'ish tutdi» iboralari so'z sehriga ishonchning mahsulidir.

Xalq qarg'ishlarining badiiy shakli, tili va ifoda uslubidan ijodiy foydalanib yaratilgan ushbu satrlarda mustamlakaga aylantirilgan yurtning ayanchli ahvolini ko'rib, yuragi qattiq ezilgan va larzaga kelgan lirik qahramonning ko'ngli tubidagi istak-orzulari otilib chiqmoqda. Bunday analistik folklorizm namunalari she'rlarning ohangdorligini va ta'sirchanligini oshirishda katta rol o'ynaydi.

⁷ Каримов Б. Рухият алифбоси. – Тошкент. Faafur Fулом номидаги НМИУ. 2016.

⁸ Каримов Н. Абдулҳамид Сулаймон ўғли Чўлпон. – Тошкент: Фан, 1991.

Xalq qarg‘ishlarining badiiy shakli, tili va ifoda uslubidan ijodiy foydalaniб yaratilgan ushbu satrlarda mustamlakaga aylantirilgan yurtning ayanchli ahvolini ko‘rib, yuragi qattiq ezilgan va larzaga kelgan lirik qahramonning ko‘ngli tubidagi istak-orzulari otilib chiqmoqda. Uning qalbida tug‘ilgan cheksiz qyinoq, og‘riqli faryod, nafrat va g‘azab uni qarg‘ashga undayotgan kuch ekani ayonlashmoqda. Ma’lumki, nafrat va g‘azab qarg‘ishlar tabiatini belgilovchi asosiy alomatdir. Unga xos mana shu belgi Cho‘lponning mustabidlar zulmini qoralash, ularni la’natlash uchun badiiy ifoda shakli, poetik vosita sifatida foydalanishiga yo‘l ochgan.⁹

Shunisi borki, Cho‘lpon qo‘llagan bu kabi qarg‘ishlar bir kishiga, bирgina ob’yektga emas, balki umumga qaratilganligi bilan ijtimoiy mohiyat kasb etib, xalqona uslubdagi qarg‘ishlardan mazmunan farq etmoqda. Xuddi mana shu nuqtada shoirning badiiy mahorati, o‘ziga xos folklorizm yaratganligi ko‘zga tashlanadi.

Folklorizm o‘ziga xos badiiy hodisa sifatida muhim estetik ahamiyat kasb etadi. U folklor ta’sirida yozma adabiyot namunasiga folkloriga xos hodisalarning badiiy mahorat bilan singdirilishidan, qayta talqin etilishidan yuzaga keladi.

XX asr she’riyatida folklorizmlar tabiatini tekshirar ekanmiz, o‘z o‘rnida oddiy folklorizmlar bilan bir qatorda murakkab folklorizmlarni ham oz miqdorda uchratamiz. Negaki, murakkab folklorizmlarni she’rda bir o‘qishda topish qiyin. U she’r mazmuniga singdirilishi, yoki ijodkor tomonidan folklor materiali qayta ishlangan bo‘lishi, folklor elementlari epizodik vazifa bajarib qolishi mumkin. Buni faqat tadqiqotchi sinchikovlik bilan topa oladi. Adabiyotshunos olim B.Sarimsoqov murakkab folklorizmlarni aynan shu xususiyatlarini inobatga olib, uni uch turga ajratgan: a) analitik folklorizmlar; b) sintezlashgan foklorizmlar; d) stilizatsiya xarakterdagи folklorizmlar. Olqishlarda fikr ko‘pincha ortiqcha badiiy bo‘yoqlarsiz, to‘ppadan-to‘g‘ri bayon etiladi. Qarg‘ishlarda esa insonga yomon niyat bildirilishi bois insoniylik nuqtai nazaridan og‘ir vaziyatni biroz bo‘lsa-da yumshatish ilinjida fikr to‘ppadan-to‘g‘ri emas, metaforik usulda, yashirin ramziy tusda bayon etiladi. Qarg‘ishlarga xos bunday metaforik bayon uslubi shoirlarga o‘z fikrini, qalbi tubiga yashiringan og‘riqli o‘y-kechinmalarini badiiy ifoda etishida qulaylik tug‘diradi. Shuning uchun qarg‘ish qo‘llangan she’rlarda metaforik ifodaviylik, shartli badiiy ko‘chim, ramziylik alohida bo‘rtib ko‘rinadi.

Foydalaniлган адабиётлар.

1. Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. – Тошкент: Фан, 2001.
2. Жўракулов У. Ҳудудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006.
3. Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги НМИУ, 2015.
4. Исмоил Гаспринский ва Туркистан. – Тошкент: Шарқ, 2005.
5. Истиқлол ва “Фитрат” мавзуидаги анъанавий республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Бухоро, 2017.
6. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983.
7. Каримов Б. Руҳият алифбоси. – Тошкент. Faafur Fулом номидаги НМИУ. 2016.
8. Каримов Н. Абдулҳамид Сулаймон ўғли Чўлпон. – Тошкент: Фан, 1991.
9. Каримов Н. Чўлпон. – Тошкент: Шарқ, 2003.

⁹ Каримов Н. Чўлпон. – Тошкент: Шарқ, 2003.